O‘ZBEKISTON VA AQSH PREZIDENTLARI STRATEGIK SHERIKLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARINI BELGILAB OLDILAR

23-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning muzokaralari bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv BMT bosh qarorgohida, tashkilot Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi doirasida bo‘lib o‘tdi.

Davomi → 3-betda



Международное сотрудничество

ПОДПИСАН РЯД ДВУСТОРОННИХ ДОКУМЕНТОВ ПО РАЗВИТИЮ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО И ИНВЕСТИЦИОННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

Продолжение → 9 стр.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГАЗЕТА / IQTISODIY GAZETA

BIZNES DAILY BIRJA

#77 (3271) 25.09.2025

GAZETA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI KO‘MAGI BILAN CHOP ETILADI

WWW.BUSINESSDAILY.UZ

O‘zbekiston Prezidenti dunyo mamlakatlarini o‘zaro hamjihatlik, ochiq muloqot va yaqin sheriklikka chaqirdi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-sentyabr kuni Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh qarorgohida BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi umumsiyosiy munozaralarida nutq so‘zladi.



Sessiya raisi Annalena Berbok boshchiligida o‘tkazilayotgan munozaralarning birinchi kunida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, a’zo davlatlar yetakchilari – Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp, Braziliya Federativ Respublikasi Prezidenti Luis Inasiu Da Silva, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Janubiy Afrika Respublikasi Prezidenti Siril Ramafosa, Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myon, Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron hamda boshqa mamlakatlar rahbarlari qatnashmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev so‘zining avvalida ishtirokchilarni BMT Bosh Assambleyasining yubiley anjumani –80-sessiyasi bilan samimiy qutladi. Mazkur yig‘ilish shiddat bilan o‘zgarayotgan murakkab global vaziyatda o‘tayotgani, bu esa Tashkilot faoliyati va uning kelajagiga yangicha yondashuvlar bilan qarashga chorlayotganini qayd etdi.

– Hozirgi kunda dunyoda xalqaro institutlarning o‘rni va roli zaiflashmoqda, qarama-qarshilik, nizo va urushlar kuchaymoqda, texnologik va ijtimoiy tengsizlik keskin oshmoqda, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib bormoqda. Bularning hammasi mutlaqo yangi, xavotirli geosiyosiy voqelikni vujudga keltirmoqda, – dedi O‘zbekiston rahbari.

Prezidentimiz Bosh kotib Antoniu Guterrishning eng og‘ir va o‘tkir global masalalarni murosa bilan hal etish uchun BMTni asosiy platforma sifatida saqlab qolishga qaratilgan sa’y-harakatlarini yuksak baholadi. “BMT – 80” tashabbuslarini to‘liq qo‘llab-quvvatladi, mamlakatimiz Kelajak uchun paktga qat’iy sodiqligini tasdiqladi.

O‘zbekiston yetakchisi zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida BMT Xavfsizlik Kengashini transformatsiya qilish va uning tarkibini kengaytirishga chaqirdi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistondagi Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang holda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlar jarayoniga batafsil to‘xtaldi. Ta’kidlanganidek, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy Yangi O‘zbekistonni barpo etish siyosati olib borilmoqda.

– Ustuvor maqsadimiz – mamlakatimizda yashayotgan har bir oilaning, har bir fuqaroning hayotini tubdan o‘zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirishdir, – dedi Prezident.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishilgani ta’kidlandi. Bu, avvalo, ta’lim va ilm-fan sohasi o‘zgartirilayotgani, innovatsion tarmoqlar va texnologik sanoat korxonalari barpo etilayotgani, “yashil” energetika va transport infratuzilmasi modernizatsiya qilinayotgani, kichik biznes har tomonlama rivojlantirilayotgani va natijada millionlab ish o‘rinlari yaratilayotgani tufaylidir.



Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshdi, oliy ta’lim bilan qamrov esa 9 foizdan 42 foizga yetdi. O‘qituvchi va ustozlik kasbining obro‘si va nufuzini keskin oshirishga hal qiluvchi masala sifatida qaralmoqda.

Pedagoglarning o‘zaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platformani yaratish maqsadida O‘zbekistonda Butunjahon professional ta’lim sammitini o‘tkazish taklif etildi.

Ilg‘or sog‘liqni saqlash tizimini yaratish xususida so‘z yuritar ekan, mamlakatimiz yetakchisi BMT bosh qarorgohida O‘zbekiston tashabbusi bilan bolalar saratoni va boshqa og‘ir kasalliklarga qarshi kurashga bag‘ishlangan yuqori darajadagi tadbir o‘tkazilishini aytdi.

Gender siyosatiga to‘xtalib, davlatimiz rahbari mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti va tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning roli bundan buyon ham mustahkamlanishini ta’kidladi. Shu ma’noda, keng mintaqamiz miqyosida Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirib, muntazam o‘tkazib borish muhimligi qayd etildi.

Mamlakatimiz Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qat’iy intilishini tasdiqlab, Prezident O‘zbekiston 2030-yilga borib “daromadi o‘rtadan yuqori” bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganini ta’kidladi.

O‘zbekistonning tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratildi. Prezidentimiz shunday dedi: "Bundan 8 yil muqaddam biz ushbu yuksak minbardan turib, Markaziy Osiyoni tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik makoniga aylantirishga qat’iy qaror qilganimizni e’lon qilgan edik. Bugun chuqur mamnuniyat bilan ta’kidlash mumkin: biz bu strategik maqsadga erishdik. Yopiq chegaralar, hal etilmagan bahs va nizolar davri tarixda qoldi".

So‘nggi yillarda mintaqamizda o‘zaro savdo, investitsiyalar va transport tashuvlari hajmi besh barobargacha ko‘paygani ta’kidlandi. Qo‘shma investitsiya jamg‘armalari, chegara hududlarida savdo va sanoat zonalari tashkil etilmoqda, yirik infratuzilma loyihalari amalga oshirilmoqda.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlari Maslahat uchrashuvlari mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish yo‘lida samarali mexanizmga aylandi.

– Shuni qat’iy ishonch bilan aytishim mumkinki, bugungi kunda Yangi Markaziy Osiyoni shakllantirish jarayoni boshlandi. Mintaqamiz o‘zining hamjihatligi, barqarorligi, o‘ziga xosligi bilan xalqaro munosabatlar tizimida alohida subyekt sifatida tobora mustahkam o‘rin egallamoqda, – dedi Prezident.

Davomi → 2-betda

Xalqaro hamkorlik

O‘zbekiston va BMT keng ko‘lamli sheriklikni kengaytiradi



→ 2-betda

Международное сотрудничество

Узбекистан и АБР расширяют сотрудничество в области «зелёной» экономики и климатических инициатив



→ 9 стр.

ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ

REKLAMA VA E’LONLAR BO’LIMI

+998 (99) 353-55-54

telegram BIZNES DAILY BIRJA

Boshlanishi → 1-betda

O‘zbekiston Prezidenti dunyo mamlakatlarini o‘zaro hamjihatlik, ochiq muloqot va yaqin sheriklikka chaqirdi

Davlatimiz rahbari BMT tuzilmalari bilan mintaqada qator yangi loyiha va dasturlarni amalga oshirishni, jumladan, EKOSOS va YUNKTAD shafeligida Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti masalalariga bag‘ishlangan xalqaro forum o‘tkazish, YUNIDO bilan sanoatda “yashil” texnologiyalar mintaqaviy xabini tashkil etish, mintaqamizda suv resurslaridan oqilona foydalanish, “yashil” makon barpo etish hamda demografik barqarorlikka erishish bo‘yicha dasturlarni qabul qilishni taklif qildi.

Bundan tashqari, Bosh Assambleyaning Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy sheriklik va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan harakatlarini qo‘llab-quvvatlashga doir rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi ilgari surildi.

Global va mintaqaviy xavfsizlik borasida fikr yuritar ekan, O‘zbekiston Prezidenti Afg‘onistondagi vaziyatga to‘xtaldi. Afg‘on xalqining tinch va osuda hayotga bo‘lgan intilishini qo‘llab-quvvatlash uchun xalqaro hamjamiyatning sa’y-harakatlarini birlashtirishga chaqirib, bu davlatning yakkalanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik o‘ta muhimligini alohida ta’kidladi.

O‘zbekiston ushbu mamlakatda katta iqtisodiy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirmoqchi ekani qayd etildi.

Prezidentimiz Afg‘oniston orqali xalqaro transport va energetika koridorlarini rivojlantirish bo‘yicha BMTning alohida rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etdi.



G‘azo sektoridagi tobora yomonlashib borayotgan gumanitar inqiroz haqida gapirar ekan, Prezidentimiz harbiy harakatlarni to‘xtatish va siyosiy muzokaralarni davom ettirishga chaqirdi.

– Biz BMT rezolyutsiyalariga muvofiq, “ikki xalq uchun – ikki davlat” tamoyilini amalga oshirishning qat’iy tarafdorimiz, – dedi u yuksak minbardan turib.

Ukraina atrofidagi vaziyat ham barchamizni jiddiy tashvishga solayotganini qayd etib, Prezidentimiz bu muammoni diplomatik yo‘llar bilan hal etish bo‘yicha yuqori darajadagi muloqotlar boshlanganini olqishladi.

Xavfsizlik mavzusi davomida davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda Global aksilterror strategiyasini bajarish bo‘yicha samarali ishlarni qayd etdi. BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan hamkorlikda tuzilgan Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo‘yicha Mintaqaviy Kengashni Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirish taklif etildi. Markaz muammoli hududlardan qaytarilgan shaxslarni tinch hayotga moslashtirish bo‘yicha tajriba almashish uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasining mintaqaviy ofisini O‘zbekistonda ochish uchun zarur sharoit yaratishga tayyorligini bildirdi.

Mamlakatimiz yetakchisi bugungi tahdidlarga to‘la dunyoda global transport tizimining zaifligi dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan rivojlanayotgan davlatlarning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatib o‘tdi.

Xalqaro tranzit koridorlarining xavfsizligini ta’minlash va samarali logistika zanjirlarini yaratish maqsadida “Barqaror rivojlanish maqsadlari uchun o‘zaro transport bog‘liqligini mustahkamlash” global mexanizmini joriy etishga chaqirdi.

O‘zbekiston Prezidenti tobora o‘tkir tus olayotgan iqlim o‘zgarishi muammolariga ham alohida to‘xtaldi. Qayd etilganidek, Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlari jahon hamjamiyatining doimiy diqqat markazida bo‘lishi lozim.

– Biz Orolbo‘yi ekotizimini qayta tiklash bo‘yicha ishlarni izchil davom ettiryapmiz. So‘nggi yillarda dengizning qurigan tubida 2 million gektar maydonda sho‘rga chidamli cho‘l o‘simliklari ekildi. 2030-yilgacha ushbu hududning 80 foiz qismida yashil qoplamalar hosil qilinadi, – dedi davlat rahbari.

Suv resurslarining taqchilligi muammosiga to‘xtalar ekan, Prezidentimiz O‘zbekistonda Suvni tejash bo‘yicha butunjahon forumini o‘tkazish rejalashtirilganini ta’kidladi. Mazkur anjuman yakunlari bo‘yicha Suv inqirozini barqaror taraqqiyot uchun jiddiy tahdid sifatida belgilash va bu borada global darajada innovatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun alohida “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish mo‘ljallanmoqda.

Ekologik o‘zgarishlarning yana bir salbiy ko‘rinishi – iqlim migratsiyasining kuchayib borayotganidir. Prezidentimiz ushbu yo‘nalishda aniq xalqaro mexanizmlar va huquqiy baza hanuzgacha yaratilmaganini qayd etdi. Shu munosabat bilan bu jiddiy masalada keng xalqaro sheriklik va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish bo‘yicha Global pakt qabul qilishga chaqirdi.

Barchaning barqaror taraqqiyotini ta’minlash haqida so‘z yuritilar ekan, mamlakatlar o‘rtasida raqamli rivojlanish va sun’iy intellektdan foydalanishda tengsizlikning oldini olish juda muhim ekaniga e’tibor qaratdi. Shu ma’noda, sog‘liqni saqlash, ta’lim va madaniyat sohalarida sun’iy intellektning amaliy yechimlari va modellarini beg‘araz almashishga qaratilgan Xalqaro hamkorlik mexanizmini yaratish taklif etildi.

– Yana bir ustuvor masalaga alohida to‘xtalmoqchiman. Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o‘sib kelayotgan yosh avlod qo‘lida. Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g‘oyalarni singdirish dolzarb vazifamizdir, – dedi Prezidentimiz.

Shu munosabat bilan “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni ta’sis etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifi ilgari surildi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, O‘zbekiston jamiyatda bag‘rikenglik siyosatini izchil amalga oshirar ekan, islom ma’rifati g‘oyalarini chuqur o‘rganish va dunyoga targ‘ib etish bo‘yicha sa’y-harakatlarini faol davom ettiradi. Yaqin oylarda mintaqa uchun noyob bo‘lgan Islom sivilizatsiyasi markazi ochiladi. Buyuk ajdodlarimiz – mutafakkir allomalar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiyning boy ma’naviy va ilmiy merosining alohida taqdimoti Birlashgan Millatlar Tashkilotida o‘tkaziladi.

Shavkat Mirziyoyev so‘zining yakunida Yangi O‘zbekiston barcha davlatlar bilan o‘zaro hamjihatlik, ochiq muloqot va yaqin sheriklik tarafdori ekani, xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash, umumbashariy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish yo‘lida o‘z hissasini qo‘shishga doim tayyorligini ta’kidladi.

O‘zbekiston va BMT keng ko‘lamli sheriklikni kengaytiradi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-sentyabr kuni Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasi doirasida tashkilot Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha milliy vazifalarni amalga oshirish doirasida BMT bilan hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Antoniu Guterrishni BMTning yubiley sessiyasi bilan samimiy tabriklab, uning tashkilot tizimini zamonaviy voqelikka mos ravishda isloh qilish borasidagi tashabbuslarini qat’iy qo‘llab-quvvatladi.

O‘zbekiston va BMT sherikligida misli ko‘rilmagan yuksak darajaga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. 160 dan ortiq dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Oktyabr oyida besh yilga mo‘ljallangan yangi Hamkorlik dasturi imzolanishi kutilmoqda.

Keyingi yillarda O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi. O‘zbekiston EKOSOS, Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mita, Statistika komissiyasi kabi nufuzli tuzilmalarga a’zo etib saylandi.

O‘zbekiston tashabbusi bilan ertaga BMT bosh qarorgohida bolalar saratoni va boshqa og‘ir kasalliklarga qarshi kurashish bo‘yicha yuqori darajadagi forum bo‘lib o‘tadi. Samarqand shahrida YUNESKOning 43-Bosh konferensiyasiga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilmoqda.



Antoniu Guterrish O‘zbekiston Prezidentining Bosh Assambleyaning yubiley sessiyasidagi nutqiga yuksak baho berib, uning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, Yangi Markaziy Osiyoni shakllantirish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt, yoshlar, ma’rifatparvar islom dini va boshqa sohalarda global hamkorlikni ilgari surish borasidagi tashabbuslari muhimligini alohida ta’kidladi.

Suhbat chog‘ida dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar yuzasidan ham fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida ustuvor yo‘nalishlarda keng ko‘lamli sheriklikni rivojlantirish, hamkorlikning yangi dastur va loyihalarini ishlab chiqishga kelishib olindi.

O‘zbekiston va AQSH Prezidentlari strategik sheriklikni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab oldilar

23-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning muzokaralari bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv BMT bosh qarorgohida, tashkilot Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi doirasida bo‘lib o‘tdi.

Yetakchilar O‘zbekiston-AQSH strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari va ustuvor yo‘nalishlarini batafsil muhokama qildilar.

Mintaqaviy va global ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi. Joriy yil 5-sentyabr kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqot yakunida erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi ko‘rib chiqildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Prezident Donald Trampni ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishdagi yuksak muvaffaqiyatlari bilan samimiy tabrikladi. Uning xalqaro va mintaqaviy miqyosdagi o‘tkir mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish borasidagi shaxsiy hissasi va sa’y-harakatlari alohida qayd etildi.

O‘z navbatida, AQSH yetakchisi Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya





qilish, aholi farovonligini oshirish va xalqaro nufuzni yuksaltirishga qaratilgan ortga qaytmas islohotlarni yana bir bor qo‘llab-quvvatladi.

Turli darajalardagi siyosiy muloqot va almashinuvlar jadal rivojlanib borayotgani, ishbilarmonlik aloqalari faollashgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

AQSH Prezidenti kuni kecha O‘zbekiston yetakchisining AQSHning 50 dan ortiq yirik kompaniya va banklari rahbarlari bilan o‘tkazgan uchrashuv va muzokaralarining samarali natijalarini yuksak baholadi.

Fuqaro aviatsiyasi, tog‘-kon sanoati, muhim minerallar, moliya, innovatsiyalar, kimyo, energetika va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda shartnomalar va istiqbolli loyihalar portfeli shakllantirildi.

Ushbu loyiha va kelishuvlar ikki mamlakatda o‘n minglab yangi ish o‘rinlarini yaratishi ta’kidlandi.

Muzokaralar yakunida davlatimiz rahbari Prezident Donald Trampni o‘zi uchun qulay muddatda O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelishga taklif etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va AQSH Prezidenti Donald Trampning uchrashuvi ochiq, konstruktiv va do‘stona ruhda o‘tdi.

O‘zbekiston Prezidenti AQSH biznesi bilan hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Nyu-York shahriga tashrifining ishbilarmonlik dasturi doirasida AQSHning yetakchi kompaniyalari, investitsiya jamg‘armalari va moliyaviy institutlari rahbarlari bilan davra suhbati o‘tkazdi.

Tadbirda AQSH Prezidentining Janubiy va Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Serjio Gor, global sherikliklar bo‘yicha maxsus vakili Paolo Zampolli, savdo vaziri o‘rinbosari Uilyam Kimmitt, Amerika - O‘zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm, “Franklin Templeton”, “Citigroup”, “BNY





Mellon”, “NASDAQ”, “Boeing”, “Mastercard”, “Visa”, “General Motors”, “Nvidia”, “Oppenheimer”, “Jefferies”, “Air Products”, “Traxys”, “FLSmidth”, “GoGreen Partners”, “Cleveland Clinic”, “Cargill” kabi kompaniyalarning top-menejerlari hamda O‘zbekistonning yirik kompaniyalari rahbarlari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida AQSH Prezidenti Donald Tramp bilan yaqinda bo‘lib o‘tgan muloqotda iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan salmoqli loyihalar portfelini shakllantirishga kelishib olinganini alohida ta’kidladi. Shu munosabat bilan mazkur uchrashuv ushbu vazifalarni ilgari surishda alohida ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston va AQSHning ko‘p qirrali hamkorligi yuksak darajaga ko‘tarildi. Tovar ayirboshlash hajmi 8-yilda 4 barobar oshdi. AQSHning 300 dan ortiq kompaniyasi O‘zbekistonga sarmoya kiritdi.

“Franklin Templeton” bilan birgalikda Milliy investitsiya jamg‘armasi tashkil etildi.

Muhim minerallarni qayta ishlash va barqaror yetkazib berish zanjirlarini shakllantirish, AT, sun’iy intellekt, raqamlashtirish, transport, energetika va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, "aqlli" qishloq xo‘jaligi, ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish va ko‘plab boshqa sohalarda aniq loyihalarni ilgari surish iqtisodiy va innovatsion sheriklikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida qayd etildi.

O‘z navbatida, AQSHning yetakchi kompaniya va banklari rahbarlari O‘zbekiston Prezidentiga ularning samarali faoliyati uchun yaratilgan qulay sharoitlar uchun minnatdorlik bildirib, ushbu tarmoqlarda muhim loyiha va dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish rejalarini bayon qildilar.



BIZNES DAILY BIRJA

- **Биржа савдолари натижалари**
- **Биржа бюллетенлари**
- **Котировкалар, листинглар**
- **Танлов ва тендерлар**
- **Қимматли қоғозлар бозори иштирокчиларининг муҳим фактлари**
- **Банкротлик**

#77 (3271) 25.09.2025
WWW.BUSINESSDAILY.UZ

Когон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 22 сентябрдаги 4-2002-2001/162-сонли ажримига асосан “Buxoro” ХК (СТИР 200877690) бўйича тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) тўғрисидаги иш қайта тикланди.

Ушбу ажрим билан ушбу тадбиркорлик субъектининг суд (тугатиш) бошқарувчиси лавозимига 3-тоифали суд бошқарувчиси Каримов Шохназар Шукуриллоевич тайинланган.

Мурожаат учун манзил: Бухоро шаҳри, И.Мўминов кўчаси, 38/2-уй.

Ш.Каримовнинг телефон рақами: +99893-625-18-81.

Шу муносабат билан мазкур тадбиркорлик субъекти кредиторларининг йиғилиши 2025 йил 24 октябрь куни соат 11.00 да Бухоро шаҳри, И.Мўминов кўчаси, 38/2-уйда бўлиб ўтади.

Кредиторлар қарздорга бўлган талаблари билан эълон чиққан кундан эътиборан 1 ой давомида тугатиш бошқарувчисига мурожаат қилишлари мумкин.

Йиғилишда кўриладиган масалалар:

1. Суд (тугатиш) бошқарувчиси ҳисоботи.
2. Кредиторлар реестрини тасдиқлаш.
3. Келишув битимини тузиш.
4. Бошқа масалалар

Корхонада аудиторлик текшируви, баҳолаш, баҳолаш ҳисоботини экспертизадан ўтказиш учун танлов эълон қилинади.

Тадбиркорлик субъектининг бурчак штампи ва думалоқ муҳрлари эълон чоп этилган кундан бошлаб 3 (уч) кун ичида тугатиш бошқарувчисига топширилмаган тақдирда, йўқолган деб топилиб, бекор қилинган ҳисобланади.

Наманган туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 23 сентябрдаги 4-1601-2404/8290-сонли ажримига асосан Наманган туманидаги “Chashma suv uzumi” фермер хўжалигига (СТИР 303882586) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилди, кузатув таомили жорий этилди. Муваққат бошқарувчи этиб суд бошқарувчиси этиб Т.Хамидов тайинланди.

Суд мажлиси 2025 йил 23 октябрь куни соат 10.00 да Наманган шаҳри, Н.Номонгоний кўчаси, 20-а уйда жойлашган Наманган туманлараро иқтисодий суди биносида ўтказилади.

Кредиторларнинг талаблари эълон чоп этилган санадан бошлаб 1 ойлик муддат ичида муваққат бошқарувчи томонидан қабул қилинади.

Манзил: Наманган вилояти, Наманган шаҳри, Навоий кўчаси, 72-уй.

Тел: +99890+740-90-25.

Риштон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 19 сентябрдаги 4-1505-2502/8736-сонли иш бўйича чиқарган ажримига асосан Боғдод туманида рўйхатдан ўтган “Farg’ona texnik ta’minlash va butlash” МЧЖга (СТИР 200158264) нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомили жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Мирзаолимов Баходир Бахтиёр ўғли тайинланган.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 17 октябрь куни соат 10.00 да Фарғона вилояти, Фарғона шаҳри, Оқ йўл кўчаси, 67-а уйда бўлиб ўтади.

Кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчи ҳисоботини тасдиқлаш.
2. Кредиторлар талаблари реестрини тасдиқлаш.
3. Муваққат бошқарувчининг намунавий календарь иш режасини тасдиқлаш.
4. Муваққат бошқарувчига кузатув даври учун иш ҳақи тайинлаш.
5. Кузатув жараёни натижасига кўра, тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилини белгилаш.
6. Бошқа масалалар.

Кредиторлар қарздорга бўлган талаблари билан эълон чиққан кундан бошлаб йиғилишга қадар қуйидаги манзилга мурожаат қилишлари мумкин: (индекс:150103) Фарғона вилояти, Фарғона шаҳри, Оқ йўл кўчаси, 67-а уй. Электрон почта: Email: bahodir.mirzaolimov@mail.ru Тел: +99899-911-82-29.

Кредиторлар диққатига!

“Fer Black Gold Star” МЧЖнинг (СТИР 308880689) 2025 йил 23 сентябрь куни соат 11.00 даги кредиторлар йиғилишида кворум бўлмаганлиги сабабли йиғилиш “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуннинг 12- моддасига асосан 2025 йил 29 сентябрь куни соат 10.00 га қолдирилди.

Кун тартиби:

1. Тугатиш бошқарувчисининг якуний ҳисоботи.
2. Кредиторлар талаблари реестрини тасдиқлаш.
3. Аудитор ҳисоботини кўриб чиқиш.
4. Дебитор қарздорликлар масаласи.
5. Қарздор “Fer Black Gold Star” МЧЖни давлат рўйхатидан чиқариш, тугатишга доир иш юритишни тамомлаш.
6. Бошқа масалалар.

Йиғилишда шахсни тасдиқловчи ҳужжат ва тегишли тартибда расмийлаштирилган ишончнома ҳамда ҳақдорликни тасдиқловчи солиштирма далолатнома билан қатнашиш шарт.

Манзил: (индекс: 150115) Фарғона шаҳри, С.Темур кўчаси, 43-б уй. Тел: +99894-130-17-33.

Чирчиқ туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 29 августдаги 4-1102-2501/11637-сонли ажрими билан “Imkon premix” МЧЖга (СТИР 301613668) нисбатан тўловга қобилиятсизликка доир иш қўзғатилиб, кузатув жорий этилган.

Кузатув ишларини амалга ошириш учун 3-тоифали суд бошқарувчиси Аминов Хуршид Ўткирович муваққат бошқарувчи этиб тайинланган.

“Imkon premix” МЧЖ кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 27 октябрь куни соат 11.00 да Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани, Бунёдкор шохкўчаси, 42-уй, 605-хонада бўлиб ўтади.

Мурожаат учун телефон: +99891-784-33-31.

Кун тартиби:

1. Чирчиқ туманлараро иқтисодий судининг ажрими билан таништириш ва муваққат бошқарувчи ҳисоботи.
2. Кредиторлар талаблари реестрини тузиш ва тасдиқлаш.
3. Суд санациясини ёки ташқи бошқарувни жорий этиш ҳақида илтимоснома билан Чирчиқ туманлараро иқтисодий судига мурожаат қилиш.
4. Қарздорни тўловга қобилиятсиз деб топиш ва тугатишга доир иш юритишни бошлаш ҳақида илтимоснома билан Чирчиқ туманлараро иқтисодий судига мурожаат қилиш.
5. Санация қилувчи бошқарувчининг, ташқи бошқарувчининг ёки тугатиш бошқарувчисининг номзодларини маъқуллаш.
6. Муваққат бошқарувчининг иш ҳақини белгилаш ва тасдиқлаш.

Қарздорга нисбатан талаб билдираётган барча корхона, ташкилот ва бошқа субъектлар вакиллари қарздорликни тасдиқловчи таққослама далолатнома билан, овоз бериш учун ваколатнома асосида кредиторлар йиғилишида қатнашишлари сўралади.

Ушбу йиғилишга қадар кредиторлар ҳамда вакил кредиторларнинг биринчи йиғилишида қатнашиш ва овоз бериш учун ваколатномаларни муваққат бошқарувчига тақдим қилиши шарт.

Кўриб чиқиладиган масалалар билан йиғилиш давомида таништириб борилади. Иштирокчиларни рўйхатга олиш йиғилишдан 30 дақиқа олдин бошланиб, 5 дақиқа қолганида тўхтатилади.

Тақдим этилган ваколатномада ваколатли вакилнинг фамилияси, исми, отасининг исми, паспорт маълумотномаси, лавозими, ваколатноманинг ваколат муддати ва муҳр бўлиши лозим.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ажримлари билан қуйидаги корхоналарга нисбатан тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Чўтов Мамаюсуп Омонович тайинланган.

Мазкур қарздор корхоналар кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 29 октябрь куни Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида бўлиб ўтади.

Кредиторлар йиғилишида “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуннинг 89-моддасида кўрсатиб ўтилган ҳамда ушбу қонунда назарда тутилган бошқа масалалар кўриб чиқилади.

Кредиторлар йиғилишида кўриб чиқилиши лозим бўлган масалалар билан танишиш учун кредиторлар кузатув жараёнида мурожаат қилишлари мумкин.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой давомида Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонаси манзилида қабул қилинади. Тел: +99899-888-00-83.

Билдириладиган талаблар “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуннинг 87-моддаси бўйича белгиланган муддатда талабларнинг асослилигини тасдиқловчи ҳужжатлар илова қилинган ҳолда судга, қарздорга ҳамда муваққат бошқарувчига юборилган тақдирда, ўрганиб чиқилади ҳамда талаблар ўз тасдиғини топса, белгиланган тартибда кредиторлар реестрига киритилади.

Т/р	СТИР	Корхона номи	Иқтисодий суднинг (ажрими, ҳал қилув қарори)нинг		Суднинг номи	Рўйхатга олиш вақти	Кредиторлар йиғилишининг вақти
			Санаси	Рақами			
1	302623987	“Integral construction” МЧЖ	23.09.2025 й.	4-1103-501/5201	Қуйичирчиқ	10.30	11.00
2	309328730	“Ricco-bash-vord” МЧЖ	22.09.2025 й	4-1001-2514/104876	Тошкент	11.30	12.00
3	303681346	“Ezgulik sari agro” ФХ	09.09.2025 й	4-1102-2502/11659	Чирчиқ	12.20	12.30

Иштихон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 22 сентябрдаги 4-1403-2501/4546-сонли ажримига асосан қарздор “Ishtixon gaz petrol” МЧЖга (Стир 302724014) нисбатан кузатув жорий қилинган. Муваққат (суд) бошқарувчи этиб Савурбаев Шавкат Абдувакулович тайинланган.

Кредиторлар ўз талабларини бир ой давомида билдириши, Самарқанд шаҳри, М.Улуғбек кўчаси, 96-уйга мурожаат қилиши мумкин.

Кредиторлар йиғилиши 2025 йил 28 октябрь куни соат 10.00 да Самарқанд вилояти солиқ бошқармаси биносида бўлиб ўтади.

Кворум бўлмаган тақдирда, такрорий йиғилиш 2025 йил 31 октябрь куни соат 10.00 да юқорида кўрсатиб ўтилган манзилда ўтказилади.

Мурожаат учун тел: +99895-575-00-17.

Жиззах туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 16 сентябрдаги 4-1301-2404/17470-сонли ҳал қилув қарори билан “Jizzax industrial tex” МЧЖ (СТИР 309024524) умумий тартибда тўловга қобилиятсиз деб топилиб, тугатишга доир иш юритиш бошланган.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 20 октябрь куни соат 12.00 да Жиззах шаҳар, Ш.Рашидов кўчаси, 63-уй, 5-қаватида бўлиб ўтиши белгиланган.

Баҳоловчи ташкилотлар учун қарздорнинг мулклари бозор қийматини аниқлаш бўйича танлов эълон қилинади.

Кредиторлар ҳамда танловда қатнашиш истагини билдирган ташкилотлар тугатиш бошқарувчисининг +99893-613-22-62 телефон/телеграмм рақамига мурожаат қилишлари мумкин.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 12 сентябрдаги 4-1001-2524/99017-сонли ажрими билан “Mahkota import” МЧЖга (СТИР 309482605) нисбатан тўловга қобилиятсизликка доир иш қўзғатилиб, кузатув жорий этилган.

Кузатув ишларини амалга ошириш учун 3-тоифали суд бошқарувчиси Аминов Хуршид Ўткирович муваққат бошқарувчи этиб тайинланган.

“Mahkota import” МЧЖ кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 28 октябрь куни соат 11.00 да Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани, Бунёдкор шохкўчаси, 42-уй, 605-хонада бўлиб ўтади.

Мурожаат учун телефон: +99891-784-33-31.

Кун тартиби:

1. Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ажрими билан таништириш ва муваққат бошқарувчи ҳисоботи.
2. Кредиторлар талаблари реестрини тузиш ва тасдиқлаш.
3. Суд санациясини ёки ташқи бошқарувни жорий этиш ҳақида илтимоснома билан Тошкент туманлараро иқтисодий судига мурожаат қилиш.
4. Қарздорни тўловга қобилиятсиз деб топиш ва тугатишга доир иш юритишни бошлаш ҳақида илтимоснома билан Тошкент туманлараро иқтисодий судига мурожаат қилиш.
5. Санация қилувчи бошқарувчининг, ташқи бошқарувчининг ёки тугатиш бошқарувчисининг номзодларини маъқуллаш.
6. Муваққат бошқарувчининг иш ҳақини белгилаш ва тасдиқлаш.

Қарздорга нисбатан талаб билдираётган барча корхона, ташкилот ва бошқа субъектлар вакиллари қарздорликни тасдиқловчи таққослама далолатнома билан, овоз бериш учун ваколатнома асосида кредиторлар йиғилишида қатнашишлари сўралади.

Ушбу йиғилишга қадар кредиторлар ҳамда вакил кредиторларнинг биринчи йиғилишида қатнашиш ва овоз бериш учун ваколатномаларни муваққат бошқарувчига тақдим қилиши шарт.

Кўриб чиқиладиган масалалар билан йиғилиш давомида таништириб борилади. Иштирокчиларни рўйхатга олиш йиғилишдан 30 дақиқа олдин бошланиб, 5 дақиқа қолганида тўхтатилади.

Тақдим этилган ваколатномада ваколатли вакилнинг фамилияси, исми, отасининг исми, паспорт маълумотномаси, лавозими, ваколатноманинг ваколат муддати ва муҳр бўлиши лозим.

Туманлараро иқтисодий судларнинг ҳал қилув қарорларига асосан қуйидаги юридик шахслар тўловга қобилиятсиз деб топилиб, тугатишга доир иш юритиш бошланган. Тугатиш бошқарувчиси вазифасига суд бошқарувчиси Мусаев Наврузжон Эшберди ўғли тайинланган.

Т/р	СТИР	Корхона номи	Суднинг ҳал қилув қарорлари		Йиғилиш вақти
			санаси	рақами	
1	206075823	“Mirzarasul bog’i” ФХ	11.08.2025	4-1505-2501/822	11:00
2	304836546	“Farg’ona baliq sanoat agrofirmasi” МЧЖ	31.07.2025	4-1504-2402/4731	12:00

Ушбу корхоналар бўйича кредиторлар йиғилиши 2025 йил 9 октябрь куни Тошкент шаҳри, Шайхонтоҳур тумани, Навоий кўчаси, 30-уй, 4-қаватда бўлиб ўтади. Тел: +99890-061-00-41.

Йиғилиш кун тартиби:

1. Тугатиш бошқарувчисининг ҳисоботи.
2. Штат жадвали ва харажатлар сметасини, тугатиш режасини тасдиқлаш.
3. Тугатиш бошқарувчисига ҳақ тўлаш миқдорини белгилаш.
4. Кредиторлар талаблари реестрини тасдиқлаш.
5. Тугатиш билан боғлиқ бошқа масалалар.

Ҳурматли акциядорлар!

"Mulk-sarmoya brokerlik uyi" АЖ 2025 йил 14 октябрь куни Тошкент шаҳри, Мустақиллик шохкўчаси, 107-уйда жамият акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилиши ўтказилишини маълум қилади.

Акциядорларни ҳабардор қилиш учун реестр шакллантирилган сана – 15.09.2025 йил.

Йиғилишда иштирок этиш учун рестр шакллантирилган сана – 08.10.2025 йил.

Умумий йиғилиш ўтказиш вақти: 11.00

Акциядорларни рўйхатга олиш 10.00 да бошланади.

Йиғилиш кун тартиби:

1. Овозларни санаб чиқиш, акциядорларни рўйхатга олиш, овоз бериш бюллетенларини тарқатиш учун саноқ комиссияси аъзолари сони ва шахсий таркибини тасдиқлаш.
2. "Mulk-sarmoya brokerlik uyi" АЖ кузатув кенгаши аъзоси бўлган Latipov Sarvar Ilxomjon o'gli ўрнига Buribayev Shuxrat Isabayevich (Kafolat SK AJ бош менежери) номзодини жамият кузатув кенгаши таркибига сайлаш.
3. "Мулк сармоя брокерлик уйи" АЖнинг янги таҳрирдаги ташкилий тузилмасини тасдиқлаш.
4. "Мулк сармоя брокерлик уйи" АЖнинг янги таҳрирдаги уставини тасдиқлаш.

Амалдаги қонунчиликка мувофиқ, акциядорлар умумий йиғилишида иштирок этиш учун акциядорлардан шахсини тасдиқловчи ҳужжат, акциядорлар вакилларидан эса белгиланган тартибда расмийлаштирилган ишончнома талаб этилади.

Умумий йиғилиш кун тартибига киритилган масалалар бўйича қўшимча маълумотлар билан "Mulk Sarmoya Brokerlik Uyi" АЖда (манзил: Тошкент шаҳри, Мустақиллик шохкўчаси, 107-уй, 313-хона) шанба ва якшанба кунларидан ташқари ҳар куни соат 9.00 дан 18.00 гача бўлган вақт мобайнида танишиш мумкин.

Телефон: +99871-267-35-20, Электрон почта манзили: info@ndvakt.uz

Веб-сайт: www.msbu.uz

"Mulk Sarmoya Brokerlik Uyi" АЖ кузатув кенгаши.

Тошкент вилояти, Бекобод туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 12 сентябрь куни чиқарган 4-1106-2502/4367-сонли ажримига асосан "Naril textile invest" МЧЖга (СТИР 304580692) нисбатан банкротлик таомилининг кузатув жараёни жорий қилинди. Муваққат бошқарувчи этиб Абдуллаев Шерзод Мустафоевич тайинланган.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 22 октябрь куни соат 11.00 да Тошкент вилояти ДСБ биносида бўлиб ўтади. Кредиторлар шахсини тасдиқловчи ҳужжат, ишончнома ва қарздорликни тасдиқловчи ҳужжат билан қатнашишлари мумкин.

Манзил: Тошкент вилояти ДСБ биноси мажлислар зали.

Мурожаат учун тел.: +99891-541-30-88.

Hurmatli mijozlar va hamkorlar!

Sizlarga samimiy minnatdorchilik bildiramiz va biz bilan uzoq muddatli hamkorlik uchun tashakkur izhor qilamiz!

Sizga "Smart bank" AJ nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili o'zgargani to'g'risida ma'lum qilamiz.

Bankning yangi nomi: "Open bank" aksiyadorlik jamiyati, qisqartirilgan nomi – "Open bank" AJ.

Bankning yangi joylashgan yeri (pochta manzili): O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Shaxrisabz ko'chasi, 2-uy.

Elektron pochta manzili: office@openbank.uz.

Bank nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzilining o'zgarishi huquqiy shaxs maqomiga, shartnomalarning amal qilish muddatiga, ko'rsatilayotgan xizmatlar/mahsulotlar sifati va tarkibiga ta'sir qilmaydi. Barcha majburiyatlarimiz va kelishuvlarimiz o'z kuchida qoladi.

Bankning barcha shartnomaviy majburiyatlari va talablari, hisob raqamlari, telefon raqamlari, xizmat ko'rsatish tartibi va sifati o'zgarishsiz qoladi. Huquqiy vorislik to'liq saqlanadi.

Hujjatlaringizda, hisob-kitoblaringizda va rasmiy muomalalarda yangi ma'lumotlardan foydalanishni so'raymiz.

Yangi nom va yuridik manzil ostida hamkorligimiz yanada samarali va mustahkam bo'lishiga ishonamiz.

Agar qo'shimcha savollar tug'ilsa, quyidagi raqamlar yoki elektron pochta manzili orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin:

Telefon: 1377. Elektron pochta: office@openbank.uz. Veb manzil: www.openbank.uz.

Bank boshqaruvi.

"Open bank" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida

E'LON!

Hurmatli aksiyadorlar!

"Open bank" aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining 2025-yil 24-sentyabr qaroriga asosan bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 20-oktyabr kuni Toshkent shahri Yunusobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 2-uy manzilida joylashgan binoda o'tkaziladi.

Yig'ilish soat 11.00 da boshlanadi. Aksiyadorlarni ro'yxatga olish soat 10.30 dan boshlanadi va soat 10.55 da tugatiladi. Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun bank aksiyadorlari reyestri 2025-yil 24-sentyabr holatiga va aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qatnashish uchun 2025-yil 14-oktyabr holatiga tuziladi.

Kun tartibi:

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. Bankning ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.
4. Bankning yangi faoliyatini yo'lga qo'yish va ushbu faoliyat yuzasidan yangi kollegial organni tashkil etish.
5. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi a'zolarini saylash.
6. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.
7. Bankning ichki qoidalari to'plamini tasdiqlash.
8. Bankning affillangan shaxslari ro'yxatini tasdiqlash.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qatnashish va ovoz berish uchun aksiyadorlarda shaxsini tasdiqlovchi hujjat, aksiyadorlar vakillarida esa qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo'lishi lozim.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha axborotlar (materiallar) bilan Toshkent shahri Yunusobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 2-uy manzilida ushbu e'lon berilgan kundan boshlab yig'ilish o'tkaziladigan kunga qadar soat 10.00 dan 17.00 gacha tanishish mumkin.

Elektron pochta manzili: office@openbank.uz

"Open bank" aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 15-19-сентябрь кунларидаги ажримларига мувофиқ, "SM Prime Lub" МЧЖ (4-1001-2507/98688), "Mustahkam qurilish biznes" МЧЖга (4-1001-2511/102958) нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши қўзғатилиб, кузатув таомили жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб суд бошқарувчиси Турғунов Аброр Абдужамалович тайинланган. (Тел: +99891-494-07-00).

Ушбу корхоналар кредиторлари йиғилиши 2025 йил 28 октябрь куни соат 10.00 да ва соат 11.30 да Тошкент шаҳар, Яккасарой тумани, Бобур кўчаси, 77-уй, 307-хонада бўлиб ўтади.

Кун тартибидаги масалалар:

1. Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ажрими.
2. Кредиторлар талаблари реестрини тасдиқлаш.
3. Муваққат бошқарувчига ойлик маош тайинлаш.
4. Тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилини танлаш ёки келишув битимини тузиш.
5. Бошқа масалалар.

Йиғилишда ташкилот номидан ваколатли вакил (қарздорликни тасдиқловчи ҳужжат – солиштирма далолатнома ҳамда ваколатнома билан) қатнашиши сўралади. Кредиторларни рўйхатга олиш соат 09.30 да бошланади.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 12 сентябрдаги 4-1001-2517/97313-сонли ажрими билан "Sheyx wash" МЧЖга (СТИР 311339679), 4-1001-2502/97318-сонли ажрими билан "Aluwin System" МЧЖга (СТИР 305775417) ва Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 23 сентябрдаги 4-1001-2528/97888-сонли ажрими билан "Trust-one machinery" МЧЖга (СТИР 303371787) нисбатан тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) иши қўзғатилиб, кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Мамадияров Хасан Жуманазарович тайинланган.

Кузатув таомили жараёнида олиб борилган ишлар бўйича кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 27 октябрь куни соат 14.00 да, соат 14.15 да ва соат 14.30 да Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани, Хирмонтепа МФЙ, 19-мавзе, 45-уйда бўлиб ўтиши белгиланган.

Кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчининг ҳисоботини тасдиқлаш.
2. Аниқланган кредиторлар талаблари реестрини тасдиқлаш.
3. Ташқи бошқарув, суд санацияси ва келишув битимини тузиш.
4. Кузатув жараёнида ўтказилган таҳлил натижалари бўйича қилинган хулосага асосан қарздор МЧЖларни тўловга қобилиятсизликнинг бошқа таомилига ўтказиш.
5. Муваққат бошқарувчига вазифаларини бажарганлиги учун ҳақ тўлаш миқдори ва тартибини белгилаш.
6. Қонунда назарда тутилган бошқа масалалар.

Кредиторлар шахсини тасдиқловчи ҳужжат асл нусхаси ва кредиторлик қарзи бўйича асосли ҳужжатларнинг асл нусхаси, кредиторлар йиғилишида қатнашиш ва кредитор манфаатларини ҳимоя қилишга ваколат берилган ҳужжат асл нусхасини тақдим этишлари шарт.

Эълон чиққан кундан эътиборан (индекс: 100182) Тошкент шаҳри, Сергели тумани, Қут-барака МФЙ, массив А.Навоий, 100-уйга ёки +99890-987-97-91, +99899-985-19-78 телефон рақамлари ва omad.zari@mail.ru электрон почта орқали мурожаат қилиш мумкин.

Ўзбекистон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 19 сентябрдаги 4-1503-2501/5820-сонли иш юзасидан чиқарган ажримига асосан Фарғона вилояти, Ўзбекистон тумани, Шўрсув шаҳарчасида фаолият юритаётган "Sulton Qadrdon" МЧЖга (СТИР 306956830) нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши қўзғатилиб, кузатув таомили жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб Акбаров Зафар Фарходович тайинланган.

Кредиторлар қарздорга бўлган талаблари билан эълон чиққан кундан эътиборан бир ой давомида қуйидаги манзилга мурожаат қилишлари мумкин: (индекс: 150700) Фарғона вилояти, Қўқон шаҳри, Чўлпон кўчаси, 43-уй. Телефон: +99890-586-44-77.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 29 августдаги 4-1001-2511/94632-сонли ажрими билан "Xudoyor Xujayor o'g'li" МЧЖга (СТИР 205206176) нисбатан тўловга қобилиятсизликка доир иш қўзғатилиб, кузатув жорий этилган.

Кузатув ишларини амалга ошириш учун 3-тоифали суд бошқарувчиси Аминов Хуршид Ўткирович муваққат бошқарувчи этиб тайинланган.

"Xudoyor Xujayor o'g'li" МЧЖ кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 28 октябрь куни соат 14.00 да Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани, Бунёдкор шохкўчаси, 42-уй, 605-хонада бўлиб ўтади.

Мурожаат учун телефон: +99891-784-33-31.

Кун тартиби:

1. Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ажрими билан таништириш ва муваққат бошқарувчи ҳисоботи.
2. Кредиторлар талаблари реестрини тузиш ва тасдиқлаш.
3. Суд санациясини ёки ташқи бошқарувни жорий этиш ҳақида илтимоснома билан Тошкент туманлараро иқтисодий судига мурожаат қилиш.
4. Қарздорни тўловга қобилиятсиз деб топиш ва тугатишга доир иш юритишни бошлаш ҳақида илтимоснома билан Тошкент туманлараро иқтисодий судига мурожаат қилиш.
5. Санация қилувчи бошқарувчининг, ташқи бошқарувчининг ёки тугатиш бошқарувчисининг номзодларини маъқуллаш.
6. Муваққат бошқарувчининг иш ҳақини белгилаш ва тасдиқлаш.

Қарздорга нисбатан талаб билдираётган барча корхона, ташкилот ва бошқа субъектлар вакиллари қарздорликни тасдиқловчи таққослама далолатнома билан, овоз бериш учун ваколатнома асосида кредиторлар йиғилишида қатнашишлари сўралади.

Ушбу йиғилишга қадар кредиторлар ҳамда вакил кредиторларнинг биринчи йиғилишида қатнашиш ва овоз бериш учун ваколатномаларни муваққат бошқарувчига тақдим қилиши шарт.

Кўриб чиқиладиган масалалар билан йиғилиш давомида таништириб борилади. Иштирокчиларни рўйхатга олиш йиғилишдан 30 дақиқа олдин бошланиб, 5 дақиқа қолганида тўхтатилади.

Тақдим этилган ваколатномада ваколатли вакилнинг фамилияси, исми, отасининг исми, паспорт маълумотномаси, лавозими, ваколатноманинг ваколат муддати ва муҳр бўлиши лозим.

Самарқанд вилояти Иштихон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 10 сентябрь куни чиқарган 4-1403-2501/4400-сонли ажримига асосан "Yoqubxon Aziya Star" МЧЖга (СТИР 306222122) нисбатан банкротлик таомилининг кузатув жараёни жорий қилинди. Муваққат бошқарувчи этиб Абдуллаев Шерзод Мустафоевич тайинланган.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 20 октябрь куни соат 11.00 да Самарқанд вилояти ДСБ биносида бўлиб ўтади. Кредиторлар шахсини тасдиқловчи ҳужжат, ишончнома ва қарздорликни тасдиқловчи ҳужжат билан қатнашишлари мумкин.

Манзил: Самарқанд вилояти ДСБ биноси мажлислар зали.

Мурожаат учун тел.: +99891-541-30-88.

Ромитан туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 3 сентябрдаги 4-2006-2501/4213-сонли ажрими билан "Ziyo Obid Odil" Ф/Хга (СТИР 304496360) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилганлиги муносабати билан кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Каримов Шохназар Шукуриллоевич тайинланган.

Мурожаат учун муваққат бошқарувчи манзили: Бухоро шаҳри, И.Мўминов кўчаси 8/2-уй, тел: +99893-625-18-81.

Кредиторлар йиғилиши 2025 йил 24 октябрь куни соат 15.00 да Бухоро шаҳри, И.Мўминов кўчаси, 38/2-уйда бўлиб ўтади.

Йиғилишда кўриб чиқиладиган масалалар билан танишиш ҳамда иштирокчиларни рўйхатга олиш 2025 йил 24 октябрь куни соат 14.00 дан 15.00 гача амалга оширилади.

Кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчининг ҳисоботи.
2. Кредиторлар реестрини тасдиқлаш.
3. Корхонага нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилидан бирини қўллаш.
4. Бошқа масалалар.

Йиғилишга ишончли вакил ишонч хатлари ва шахсини тасдиқловчи ҳужжат ҳамда кредиторлик қарзи тўғрисидаги тегишли равишда расмийлаштирилган асослантирувчи ҳужжатлар билан келиши шарт.

Кредиторлар қарздорга бўлган талаблари билан эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида тугатиш бошқарувчисига мурожаат қилишлари мумкин.

"Заковат интеллектуал клуби" ННТ ўқитувчилар ўртасида "Заковат" мусобақаси республика босқичини ўтказиш юзасидан ва "Беш ташаббус" олимпиадаси доирасида маҳалла ёшлари ўртасида "Заковат" интеллектуал ўйинининг республика турнирини ўтказиш юзасидан танлов эълон қилади!

"Заковат интеллектуал клуби" ННТ томонидан 2025 йил 5 октябрь куни ўқитувчилар ўртасида "Заковат" мусобақаси республика босқичи ўтказилиши режалаштирилган.

"Заковат интеллектуал клуби" ННТ томонидан 2025 йил 12 октябрь куни "Беш ташаббус" олимпиадаси доирасида маҳалла ёшлари ўртасида "Заковат" интеллектуал ўйинининг республика турнирини ўтказиш мўлжалланган.

"Заковат интеллектуал клуби" ННТ иккала мусобақада ҳам турнирнинг бадиий қисми сценарийсини ёзиш, режиссёрлик иши, бошловчиларнинг матнларини тайёрлаш, экран учун талаб этиладиган фонларни тайёрлаш, эстрада хонандаларининг мусиқий чиқишлари, раққослар иштирокидаги мусиқий номер ва машҳур бошловчиларнинг чиқишларини таъминлашда техник топшириқларга жавоб бера оладиган тадбиркорлик субъектларини танловда ўз таклифлари билан иштирок этишга чақиради.

Техник топшириқлар билан zakovatklubi.uz/uz сайтида танишиб чиқиш мумкин.

Таклифларни 2025 йил 29 сентябрга қадар xarid@zakovat.tv электрон почта манзилига ёки "Заковат арена" манзилига юбориш мумкин.

Ўзбекистон мусулмонлари идораси "Ҳаж – 2026" мавсуми зиёратчилари учун нимча (камзул) тайёрлаб берувчи корхоналар ўртасида танлов эълон қилади!

I. Танловда қатнашиш учун қуйидаги ҳужжатлар талаб этилади:

1. Танловда иштирок этиш бўйича хат.
2. Корхона гувоҳномаси ва раҳбарининг паспорт нусхаси.
3. Банкдан К-2 шаклидаги маълумотнома.
4. Эркак ва аёллар учун биттадан нимча намунаси.
5. Тижорат таклифи.
6. Корхонанинг сўнгги бир йилда банкдаги пул маблағлари айланмаси ҳақида маълумот.
7. Боғланиш учун телефон номерлари.

Амалдаги қонунчиликка мувофиқ зарурат бўлса қўшимча ҳужжатлар талаб этилиши мумкин.

II. Маҳсулотлар (эркаклар ва аёллар нимчаси) учун қўйилган талаблар:

Нимчалар 50, 52, 54, 56 ва 58 ўлчамларда тикилиши лозим.

Нимчаларнинг олд қисми тугмали бўлиши шарт.

Нимчанинг орқа юқори қисмида Ўзбекистон Республикаси байроғи акс эттирилган бўлиши керак.

Байроқнинг тепа қисмида, орқа томонда лотин алифбосида "UZBEKISTAN" ёзуви жойлаштирилиши талаб қилинади.

Ҳар бир нимчанинг оғирлиги 190–220 грамм зичликдаги матодан тайёрланган бўлиши керак.

Нимчалар мовий (оч кўк) рангда бўлиши лозим.

Олд қисмида учта чўнтак бўлиши: икки томонда (ён чўнтаклар) ва юқори чап қисмида битта қўшимча чўнтак.

Олд юқори чап чўнтак устки қисмида Ўзбекистон мусулмонлари идораси ҳузуридаги "Ҳаж" ва "Умра" маркази логотипи жойлаштирилган бўлиши шарт.

Танловда иштирок этиш истагида бўлган корхона ва ташкилотлар 2025 йил 31 октябрь кунига қадар юқоридаги талаблар асосида ҳужжатларни Ўзбекистон мусулмонлари идорасига тақдим этишлари мумкин.

Манзил: Тошкент шаҳри, Олмазор тумани, Қорасарой кўчаси, 47-уй.

Телефонлар: +99871-240-04-75, +99898-140-04-75.

ЭЪЛОН!

Тошкент шаҳар иқтисодий судининг ажрими билан қуйидаги корхонага нисбатан тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Хўжаяров Ихтиёр Холмуродович тайинланган.

Мазкур қарздор корхона кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 30 октябрь куни Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 320-хонасида бўлиб ўтади.

Кредиторлар йиғилишида "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонуннинг 89-моддасида кўрсатиб ўтилган ҳамда ушбу қонунда назарда тутилган бошқа масалалар кўриб чиқилади.

Йиғилишда кўриб чиқиладиган масалалар билан танишиш хоҳиши бўлган кредиторлар кузатув жараёнида мурожаат қилишлари мумкин.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой давомида Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9 тор кўчаси, 1-уйнинг 320-хонасида қабул қилинади.
Тел: +99897-771-25-24.

Т/р	СТИР	Корхона номи	Иқтисодий суднинг (ажрими,ҳал қилув қарори)нинг		Суднинг номи	Рўйхатга олиш вақти	Кредиторлар йиғилишининг вақти
			Санаси	Рақами			
1	201817684	"Havar inter-prayziz" МЧЖ	22.09.2025й.	4-1001-2514/105471	Тошкент	14.30	15.00

Каттақўрғон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 12 сентябрь кунги №4-1402-2501/8500-сонли ишига асосан Сайфуллаева Дилбар Шокир қизига (20.04.1992 йил туғилган ЖШШИР: 42004926070013) тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги иш қўзғатилган ва шу суднинг 2025 йил 15 сентябрь санасидаги ажримига асосан молиявий бошқарувчи этиб, Омонов Иззат Икром ўғли тайинланган.

Кредиторлар талаблари бир ой давомида қабул қилинади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 20 октябрь куни соат 11.30 да Давлат активларини бошқариш агентлигининг Самарқанд вилоят ҳудудий бошқармаси биносида бўлиб ўтади. Кредиторлар шахсини тасдиқловчи ҳужжат, ишончнома ва қарздорликни тасдиқловчи ҳужжат билан қатнашишлари мумкин. Мурожаат учун: Самарқанд вилоят, Пастдарғом туман, Машъал МФЙ, А.Авлоний кўчаси, 93-уй, +99899-594-07-34 рақамли телеграм месенжери ёки omonovizk@gmail.com электрон почта.

Денов туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 18 сентябрдаги 4-1905-2503/7181-сонли ҳал қилув қарорига асосан "NORTEX STYLE" МЧЖ (СТИР 302670645) банкрот деб топилиб, тугатишга доир иш юритиш бошланган. Тугатиш бошқарувчиси этиб Очилов Шохрух Шухрат ўғли тайинланган.

Корхона кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 24 октябрь куни соат 11.00 да Термиз шаҳри, Ат-Термизий кўчаси 1а-уй "Ўзмиллийбанк" АЖ Сурхондарё вилояти бошқармаси маъмурий биносида ўтказилади.

Йиғилишда кўриб чиқиладиган масалалар билан танишиш ҳамда иштирокчиларни рўйхатга олиш 2025 йил 24 октябрь куни соат 10.30 дан 10.50 гача амалга оширилади.

Кун тартиби:

1. Тугатиш бошқарувчисининг ҳисоботи.
2. Кредиторлар реестрини тасдиқлаш.
3. Тугатиш режаси ва харажатлар сметасини тасдиқлаш.
4. Аудиторлик ва баҳоловчи ташкилотларни тасдиқлаш.
5. Бошқа масалалар.

Йиғилишда ишончли вакил ишонч хатлари ва шахсини тасдиқловчи ҳужжатлар, кредиторлар қарздорга бўлган талабларини ёзма шаклда кредиторлик қарзини тасдиқловчи барча ҳужжатларни илова қилган ҳолда қатнашадилар. Қарздорга бўлган талаблар эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида қабул қилинади. Шунингдек, аудиторлик ташкилотлари қарздор корхона молия-хўжалик фаолиятини таҳлил қилиш учун, баҳоловчи ташкилотлар қарздор корхона мол-мулкларини баҳолаш учун тугатиш бошқарувчиси Ш.Очиловга мурожаат қилишлари ва ҳужжатларни тақдим қилишлари мумкин.

Тел: +99899-111-22-68.

Қарздорнинг бошқарув органлари тугатиш бошқарувчиси тайинланган кундан эътиборан уч иш куни ичида бухгалтерия ҳужжатлари ва бошқа ҳужжатлар, муҳрлар ва штамплар, моддий ва бошқа қимматликларни тугатиш бошқарувчисига топширилишини таъминлайди. Муҳр ва штамплар топширилмаган тақдирда, йўқолган деб ҳисобланади.

ЭЪЛОН!

Термиз туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 9 сентябрдаги 4-1902-2501/6807-сонли ажримига асосан "Muhammadsolita'mir-servis" MChJ (СТИР 302135921) ва 2025 йил 22 сентябрдаги 4-1901-2504/8288-сонли ажримига асосан "Humo Dunyo" ХКга (СТИР 307718681) нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомили сифатида кузатув жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб 3-тоифали суд бошқарувчиси Ибрагимов Анвархон Исакович тайинланган.

Шу муносабат билан "Muhammadsolita'mir-servis" MChJ кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 24 октябрь куни соат 9.30 да, "Humo Dunyo" ХК кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 24 октябрь куни соат 14.30 да Термиз шаҳар, М.Қошқарий кўчаси, 36-а-уйда бўлиб ўтади.

Кун тартиби:

1. Суд бошқарувчисининг тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомилида қилинган ишлар юзасидан берган ҳисоботи.
2. Қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилини қўллаш юзасидан иқтисодий судга мурожаат этиш тўғрисидаги овоз бериш бюллетени.
3. Суд бошқарувчисига хизмат вазифасини бажарганлиги учун иш ҳақи миқдори ва тартибини белгилаш.
4. Тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилига суд бошқарувчиси номзодини белгилаш.
5. Кредитор ва муассис талабига кўра, бошқа ҳар хил масалалар.

Ушбу корхоналар кредиторларининг талаблари эълон чиққан кундан бошлаб бир ой давомида қабул қилинади. Мурожаат учун тел: +99899-242-70-00.

«На основании решениям Нукусского межрайонного экономического суда от 23 сентября 2025 г. в отношении должников открыто ликвидационное производство и этими решениями ликвидационным управляющим назначен Б.Утегенов.

№	Наименование предприятий	Номер дело	ИНН
1	ООО «Aydos qurilish montaj»	4-2301-2503/1635	302187991
2	ООО «Novella-group»	4-2301-2503/1637	309588471

Требования и заявки от кредиторов, а также от дебиторов принимаются в течении одного месяца со дня опубликования настоящего объявления по нижеуказанному адресу.

В связи с чем, кредиторское собрание должника состоится в 11.00ч. 24 октября 2025 года по адресу: Республика Каракалпакстан, г. Нукус, улица А.Тимура 112 А. Телефон +99890 709 90 56.

В повестке дня:

1. Отчет ликвидационного управляющего.
2. Рассмотрения календарного плана ликвидации должников и другие вопросы.

Участникам собрания кредиторов иметь при себе соответствующую доверенность.

Не сданные в течении 10 дней печати и штампы предприятия будут считаться утерянными и не действительными.

Tadbirkor ayollar diplomatiyasi maktabi tashkil etiladi



Savdo-sanoat palatasi tashabbusi bilan Toshkent shahrida tadbirkor ayollar ishtirokida biznes-nonushta bo'lib o'tdi.

Unda 60 nafardan ziyod turli yo'nalishlarda faoliyat yuritayotgan ilg'or tadbirkor ayollar hamda yangi biznes boshlaganlar qatnashdi.

Uchrashuv davomida tadbirkor ayollar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashib, biznes maydonida ayollar sonini oshirish va davlat bilan hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha takliflar bildirdilar. "Novias Motors" MChJ va "Teodora-goods" MChJ o'rtasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha hamkorlik kelishuviga erishildi.

Tadbirkor ayollarning xalqaro maydonda faoliyat yuritishi uchun bilim va ko'nikmalarini oshirish, eksport-import jarayonlariga yo'naltirish hamda muzokaralar o'tkazish madaniyatini rivojlantirish maqsadida Savdo-sanoat palatasi huzurida Tadbirkor ayollar diplomatiyasi maktabini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi va ishtirokchilar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.



Brightman BMC LLC kompaniyasi bilan uchrashuv

Birinchi Ozarbayjon xalqaro investitsiya forumi doirasida O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi maslahatchisi Alisher Shayxov va Brightman BMC LLC kompaniyasi direktori Afet Axmadova o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Muloqot davomida tadbirkorlik, investitsiya va savdo sohalarida hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Afet Axmadova kompaniyaning Yevropa, Yaponiya va AQSH bozorlariga muvaffaqiyatli chiqish tajribasiga tayangan holda, O'zbekistonda franchayzing asosida hamkorlikni yo'lga qo'yishga tayyorligini bildirdi. Bu yo'nalish zamonaviy biznes amaliyotlarini joriy etish, yangi ish o'rinlari yaratish, ayniqsa qishloq hududlaridagi xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash va mahalliy tadbirkorlarni xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiyalashga xizmat qiladi.

O'z navbatida, Alisher Shayxov palataning xalqaro hamkorlikni kengaytirish, shuningdek kichik va o'rta biznesning barqaror rivojlanishiga ko'maklashuvchi innovatsion biznes modellarni qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat qaratayotganini ta'kidladi.

Uchrashuv yakunida tomonlar uzoq muddatli sheriklikni rivojlantirishdan o'zaro manfaatdorlikni tasdiqlab, erishilgan kelishuvlar kelgusida samarali aloqalarga mustahkam asos bo'lishini qayd etdilar.



Zamira Tojiyeva.

Davlat xaridi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma kompleks ekspertizadan o‘tkazilmasa jarima qo‘llaniladi

Ma’lumki, davlat xaridlari sohasidagi qonunchilik talablariga to‘liq rioya etilishini ta’minlash davlat mablag‘laridan samarali foydalanish, shaffoflik va adolatli raqobatga erishishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.



Shu bois ham “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunning 71-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida, shuningdek Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida amalga oshirishga ruxsat berilsa, shartnoma va shartnomaga oid qo‘shimcha kelishuvlar Kompleks ekspertiza qilish markazida kompleks ekspertizadan o‘tkazilishi lozimligi belgilangan.

Ammo, qonunchilikda kompleks ekspertizadan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalarning kompleks ekspertizadan o‘tkazilishini ta’minlamaganlik uchun javobgarlik mavjud emas. Bu bo‘shliq mas’ullar tomonidan davlat xaridini amalga oshirish chog‘ida davlat manfaatlariga zarar yetkazilishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, Hisob palatasi tomonidan o‘tkazilgan o‘rganishlar davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalarni kompleks ekspertizadan o‘tkazmaslik bilan bog‘liq qonunbuzilish holatlari aniqlangan. Lekin mazkur qonunbuzilish holatlariga nisbatan mutanosib ta’sir chorasining yo‘qligi davlat mablag‘larining samarasiz sarflanishiga, korrupsiyaviy xavflarning ortishiga va iqtisodiy raqobat muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga olib kelmoqda.

Kuzatilayotgan muammoga yechim sifatida “O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 175^8-moddasiga davlat xaridlari sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan. Kuni kecha parlament quyi palatasi yalpi majlisida ushbu qonun loyihasi atroflicha muhokama qilindi. Berilgan axborotga ko‘ra, loyihada kompleks ekspertizadan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalarning kompleks ekspertizadan o‘tkazilishini ta’minlamaganlik uchun mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy javobgarlik belgilanmoqda. Ya’ni bunday toifadagi huquqbuzarlik uchun BHMning 15 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda jarima jazosi qo‘llanilishi ko‘zda tutilmoqda.

Tashabbuskorlarning ta’kidlashicha, qonunni hayotga tatbiq etish natijasida birinchidan, davlat mablag‘laridan samarali foydalanish ta’minlanadi. To‘g‘ridan- to‘g‘ri shartnomalarni kompleks ekspertizadan o‘tkazmasdan tuzish holatlariga chek qo‘yiladi. Pirovardida davlat mablag‘lari manzilli va maqsadli yo‘naltiriladi. Ikkinchidan, huquqbuzarliklar profilaktikasi kuchayadi. Ma’muriy javobgarlik choralarining qat’iylashtirilishi mansabdor shaxslarni qonun talablariga rioya qilishga undaydi. Shuningdek, noqonuniy shartnomalar soni keskin qisqaradi. Xaridlar jarayonidagi shaffoflik va ochiqlik ko‘lami yanada kengayadi. Muhokamalardan so‘ng qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda qabul qilindi.

Markaziy bank.

Startap loyihalar: muammolar birgalikda hal etiladi







Markaziy bank tomonidan idoralararo hamkorlikka, innovatsion va texnologik yondashuvlar orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, kichik va o‘rta biznes uchun ommabop moliyaviy vositalar asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritishga qulay sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ayni shu maqsad yo‘lida yaqinda logistika sohasidagi startap loyihalar asoschilari, venchur fondlar, tijorat banklari, nasiya savdo bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hamda vazirlik va idoralar vakillari ishtirokida davra suhbati o‘tkazildi. Tadbir doirasida logistika sohasida mahalliy va xorijiy startaplarni rivojlantirish imkoniyatlari hamda istiqbolli loyihalar taqdim etildi. Shuningdek, startap loyihalarni rivojlantirish, logistika sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan raqamli yechimlar haqida so‘z yuritildi. Bundan tashqari, startap loyihalarni amaliy qo‘llab-quvvatlash va rivojlanishiga ko‘maklashish masalalari ko‘rib chiqildi. Jumladan, investitsiyalar va kredit resurslarini jalb qilishni kengaytirish borasida taklif bildirilib, startaplar, tijorat banklari va nasiya savdo bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda mahsulotlar ishlab chiqish, venchur kompaniyalar ushbu sohadagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlashi uchun ko‘proq tavakkalchilikka borishi zarurligi qayd etildi. Ta’kidlanganidek, sug‘urta xizmatlaridan foydalanishda ayniqsa hududlarda qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Shu bois tijorat banklari, sug‘urta kompaniyalari va startaplar bilan hamkorlikda sug‘urta olish jarayonini soddalashtiruvchi pilot loyihasini ishlab chiqish muhimligi aytildi. Xalqaro bozorda transport kompaniyalari mijozlari uchun yoqilg‘i hamda qo‘shimcha xizmatlar (yo‘l to‘lovlari, to‘xtash joylari, ta’mirlash va boshqalar) bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish mexanizmi mavjud bo‘lib, O‘zbekiston kompaniyalari undan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun Davlat soliq qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda ushbu amaliyotni respublikamiz kompaniyalariga joriy etish imkoniyatini ko‘rib chiqish taklifi ilgari surildi. E’tirof etilishicha, bojxona nazorat punktlariga kirishda uzun navbatlar mavjud va jarayonlar yetarlicha shaffof emas. O‘z navbatida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan bojxona nazorat punktlaridan o‘tish jarayonida elektron navbat tizimi joriy etilganligi haqida ma’lumot berildi. Endilikda mazkur onlayn platformani ommalashtirish, haydovchilar xabardorligini oshirish va bojxona postlaridagi biznes jarayonlarini ilg‘or xorij tajribasi asosida doimiy takomillashtirib borish vazifasi belgilandi. Transport logistika sohasida ilg‘or startap loyihalar mavjud bo‘lib, mazkur soha vakillari hamda aholining ushbu tizimlardan xabardorligi, foydalanish darajasi past bo‘lib qolayotgani ham bildirildi. Unga javoban Savdo-sanoat palatasi va Transport vazirligi tomonidan tegishli idoralar bilan hamkorlikda aholi va tadbirkorlik subyektlariga faoliyat ko‘rsatayotgan startap loyihalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yetkazish va ular xabardorligini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish urug‘alandi. O‘rtaga tashlangan fikrga ko‘ra, Transport vazirligi tomonidan tashuv turiga muvofiq ruxsatnoma (dozvol) hozirda faqat yuridik shaxslarga va cheklangan miqdorda beriladi. Bu esa yetishmovchilik va yuqori talabni keltirib chiqarmoqda. Shundan kelib chiqib, ruxsatnoma berish jarayonining shaffofligini oshirish va ruxsatnoma olishi mumkin bo‘lgan ishtirokchilar doirasini kengaytirish taklifi tilga olindi. Startap loyihalarning bank mahsulotlaridan (faktoring, kredit kartalari va boshqalar) faol foydalanmasligi bois Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki yuk tashuvchilar yoqilg‘i to‘lovlarini optimallashtirish maqsadida yoqilg‘i kartalari ko‘rinishida maxsus mahsulot ishlab chiqishi belgilandi. Startap loyiha rahbarlarining mavjud raqamli imkoniyatlardan yetarlicha xabardor emasligi tufayli transport yuk hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonida “Didox” MChJ tomonidan taqdim etilayotgan raqamli yechimlar va boshqa imkoniyatlar to‘g‘risida ma’lumot berildi.

Shuningdek, davra suhbati davomida muqobil skoring usullarini joriy etish bo‘yicha imkoniyatlar mavjudligi ta’kidlandi (masalan, yuk tashuvchilarning aylanmalari va tranzaksiya oqimlarini tahlil qilish) va shu yo‘nalishda tijorat banklari va sug‘urta kompaniyalari bilan o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq deb topildi.

Davra suhbati yakunida startap loyihalar, moliya institutlari va davlat idoralari o‘rtasida tizimli muloqotni davom ettirish zarurligi ta’kidlandi. Taklif etilgan chora-tadbirlarni puxta ishlab chiqish va kelgusi qadamlarda hamkorlikda tatbiq etish bo‘yicha kelishuvga erishildi. “Xalq banki” sug‘urta tashkiloti bilan hamkorlikda bozor ishtirokchilari ehtiyojlariga mos bo‘lgan va soddalashtirilgan pilot sug‘urta mahsulotini ishlab chiqishi belgilandi. Davlat banklari tomonidan logistika kompaniyalari uchun faktoring xizmatlarini taqdim etish masalasi qo‘rib chiqiladigan bo‘ldi. “O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasi tomonidan logistika sohasiga mos sug‘urta mahsulotini yaratish hamda uni logistika mobil ilovalari bilan integratsiya qilish taklifi berildi. Transport vazirligiga xalqaro avtotashishlar uchun beriladigan tashuv turiga muvofiq ruxsatnoma tizimini samaradorlik nuqtayi nazaridan tubdan qayta ko‘rib chiqish va faoliyatini takomillashtirish tavsiya etildi.

BIZNES DAILY BIRJA
#77 (3271) 25.09.2025 | www.businessdaily.uz

Ravshan MAMUTOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi raisi.

Suv resurslaridan foydalanish: joriy holat va takliflar



Suvni tejaydigan sug‘orish usullari va texnologiyalarini joriy etish, magistral va ichki kanallarni betonlashtirish suvdan samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur yo‘nalishda muayyan ishlar amalga oshirilayotganiga qaramay, hududlarda o‘tkazilgan uchrashuvlar, nazorat-tahlil tadbirlarida hali o‘z yechimini kutayotgan qator muammolar kuzatilgani bois Suv xo‘jaligi vaziri Sh. Xamrayevga parlament so‘rovi yuborilgan edi.

Kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi yalpi yig‘ilishida vazirlikdan yuborilgan javob atroflicha ko‘rib chiqildi. Taqdim etilgan axborotda keltirilishicha, jumladan suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish hisobiga 2025-yilning birinchi yarmida 1,35 mlrd kub metr, 8 oy yakuni bilan esa 2 mlrd kub metr suv iqtisod qilinishiga erishilgan. Tahlillarga qaraganda, suv tejovchi texnologiyalarni ishlatish suv resurslarini 20-60 foizgacha, YOMM va mineral o‘g‘itlarni 25-35 foizga tejash bilan birga hosildorlikni 15-40 foizgacha oshirmoqda. Bugungi kunga kelib, bunday texnologiyalarni mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar soni 60 tani tashkil etib, mahalliylashtirish darajasi 80 foizga, yillik ishlab chiqarish quvvati esa 250-300 ming gektarga yetkazilgan. Texnologiyalar butlovchi qismlari tannarxini xorijdan tashish xarajatlarini tejash hisobiga 15-20 foizgacha pasaytirish yoki gektariga 5-7 mln so‘mga arzonlashtirish, import o‘rnini bosuvchi sifatli mahsulot ishlab chiqarish hamda ichki bozorni to‘liq ta’minlash, qo‘shni davlatlarga eksport qilish imkoni yaratilmoqda. Hududlarda savdo shaxobchalari tashkil etilib, foydalanishdan chiqqan shlanglarni utilizatsiya qilish yo‘lga qo‘yilgan. Texnologiyalarning ishdan chiqqan qismlarini yangilash va qayta foydalanish maqsadida fermer xo‘jaliklariga bir yillik tomizg‘ichli shlanglarni xarid qilish uchun 10 foiz imtiyozli kredit ajratish tizimiga o‘tilgan.

Respublikamizda sug‘oriladigan yer maydoni 4,3 mln gektarni tashkil etadi. Mavjud suv resurslarining o‘rtacha 90 foizi qishloq xo‘jaligida, qolgan 10 foizi esa kommunal-maishiy, sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foydalanilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishga xizmat qiladigan jami 173,5 ming km sug‘orish tarmoqlari mavjud. Shundan, 28,7 ming km magistral va xo‘jaliklararo, 48,6 ming km tumanlar “Suv yetkazib berish xizmati” DM hisobidagi kanallar hamda 96,1 ming km klaster va fermer xo‘jaliklari hisobidagi ichki sug‘orish tarmoqlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Kanallar va sug‘orish tarmoqlarining qariyb 70 foiz qismi tuproq o‘zanli kanallarni tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan suvning 30-35 foizi tuproq o‘zanli kanal va ariqlarda yo‘qolmoqda. Shu bois 2024-yildan boshlab kanallarni betonlashtirish ishlari olib borilmoqda. 2025-yilda davlat budjeti mablag‘i hisobidan 95 ta loyiha doirasida 621,4 km (shundan, 576 km betonlashtirish) kanallar, 21 km lotok, 49,3 km yopiq sug‘orish tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan bo‘lib, o‘tgan 8 oy davomida 518,7 km (492,5 km betonlash) kanallar, 25,3 km lotok, 49,1 km yopiq sug‘orish tarmoqlari qurilgan va rekonstruksiya qilingan.

Xorijiy investitsiyalar hisobidan 3 ta loyiha doirasida 137,2 km kanallarni betonlashtirish rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 21 km qismi bajarilgan. “Farg‘ona vodiysida suv resurslarini boshqarish (2-bosqich)” loyihasi doirasida Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida 15,0 km kanallarni betonlashtirish rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 13,8 km, “Orolbo‘yi havzasida iqlimga moslashgan holda suv resurslarini boshqarish” loyihasi doirasida Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida 22,2 km kanallarni betonlashtirish rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 7,2 km. qismida bu ishlar bajarilgan. Xitoy Xalq Respublikasining kredit mablag‘i hisobidan Buxoro, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida 911 km kanallarni betonlashtirish loyihalarini amalga oshirish uchun 153 mln dollar qarz bitimlarini imzolash choralari ko‘rilmoqda. Shuningdek, Jahon banki ishtirokidagi “Milliy irrigatsiya tizimlarini yaxshilash va energiya samaradorligini oshirish” loyihasi doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasida 34,2 km, Namangan viloyatida 23,3 km, Qashqadaryo viloyatida 54,1 km, Surxondaryo viloyatida 87,7 km, Buxoro viloyatida 59,8 km kanallarni betonlashtirish bo‘yicha bugungi kunda tender hujjatlari ishlab chiqilmoqda.

“Suv yetkazib berish xizmati” DM hisobidan joriy yilda 5 ming km kanallarni betonlash belgilangan bo‘lib, buning uchun sement mahsulotlarini arzon narxda yetkazib berish, soliq to‘lovlaridan imtiyozlar berish kabi barcha imkoniyatlar yaratib berildi. Hozirda 4,3 ming km tarmoqlar betonlashtirilgan. Klaster va fermer xo‘jaliklari tomonidan 20 ming km ichki sug‘orish tarmoqlarini betonlash rejalashtirilgan bo‘lib, bugungi kunda 18 ming km ichki tarmoqlar betonlashtirildi. “Kambag‘allikdan farovonlik” dasturi doirasida 864 ta obyekt bo‘yicha umumiy qiymati 1,1 trln so‘m bo‘lgan 1921,5 km sug‘orish tarmog‘i betonlandi, 188,5 km lotok tarmog‘i, 366 km quvur, 825 ta sug‘orish quduqlari qurildi hamda 417 ta nasos agregati o‘rnatildi. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida, 867 ta mahallalardagi 442 ming ta xonadonlarning 50,1 ming gektar tomorqa maydonlari suv ta’minoti yaxshilangan.

So‘rovga javobda fermer xo‘jaliklarining betonlashtirishga doir ishlarini rag‘batlantirish bo‘yicha choralarga ham to‘xtalib o‘tilgan. Suvning yo‘qotilishini kamaytirish maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni ushbu yo‘nalishda sarflayotgan mablag‘lari bir qismini qoplab berish bo‘yicha rag‘batlantirish tizimini yaratish orqali ichki sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish ko‘lamini yanada kengaytirish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga mazkur yo‘nalishdagi tadbirlar samarasini oshirish hamda uchrayotgan muammolarni bartaraf etish uchun bir qator takliflar ilgari surilgan. Masalan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga ichki ariqlarni betonlashtirish maqsadida beton xaridi uchun 30 foiz subsidiya ajratish, tijorat banklari tomonidan kanallarni betonlashtirish va lotok tarmoqlarini yangilashga muayyan muddatga imtiyozli kredit berish, klaster va fermer xo‘jaliklari hisobidagi barcha ichki sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish ishlarini amalga oshirganligi uchun muayyan muddat soliqlardan ozod etish, yo‘qotishlarni kamaytirish borasida joriy etilayotgan yangi innovatsion texnologiyalar, ya’ni kanal va ariqlarga geomembrana (quruq beton to‘shamalari) va boshqa qoplamalar to‘shash, innovatsion usullar orqali far-beton mahsulotlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi urg‘ulangan.

Energetika vaziriga so‘rov yuborildi



Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish islohotlarning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Ayniqsa, Prezidentimizning 2023 yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan bu yo‘nalishda muhim qadam qo‘yildi. Chunonchi, energiya samaradorligini oshirish orqali respublikamiz hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta’minlash, bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda investorlar uchun qulay sharoitlar va rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilishga o‘tildi.

Mazkur hujjat asosida o‘tgan davrda respublikamizda 133 786 ta obyektga o‘rnatilgan umumiy quvvati 1 748 MVt quvvatli quyosh panellari to‘g‘risidagi ma’lumotlar “Yashil energiya” axborot tizimida tasdiqlandi. Ijtimoiy soha va davlat idoralarining 20 416 ta obyektiga 385 MVt, tadbirkorlik subyektlarining 30 713 ta obyektiga 948 MVt, ko‘p qavatli 2 155 ta uylarga 27,5 MVt, aholining 80 502 ta xonadonlariga 388 MVt quvvatga ega bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatildi.

Shu bilan birga, olib borilgan o‘rganishlar ushbu sohada hali o‘z yechimini kutayotgan qator masalalar mavjudligini ko‘rsatgan. Xususan, 2 139 ta obyektga 29 MVt quvvatga ega bo‘lgan quyosh panellari o‘z muddatida o‘rnatilmagan, 281 ta obyektga o‘rnatilgan 6,1 MVt quvvatga ega panellar esa ishchi holatda emas.

Bugungi kunda yurtimizda 7 ta korxonada yillik quvvati 770 MVt hajmga ega bo‘lgan quyosh panellari, 5 ta korxona tomonidan esa yillik hajmi 200 mingdan ziyod quyosh suv isitish kollektorlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Lekin shamol generatorlari ishlab chiqarilmayapti. Quyosh panellaridan foydalanish hajmi keskin ortib borayotganiga qaramay, hozirga qadar faoliyat muddati tugagan yoki yaroqsiz holga kelgan quyosh panellarini qayta ishlash va utilizatsiya qilish mexanizmi yo‘lga qo‘yilmagan.

Bu kabi qator muammolarning barchasi ushbu masalaga mas’ul bo‘lgan Energetika vaziri J. Mirzamahmudovga parlament so‘rovini yuborish zaruratini keltirib chiqargan.

Unda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘zimizda ishlab chiqarishni tashkillashtirish, faoliyat muddati tugagan yoki yaroqsiz holga kelgan quyosh panellarining atrof-muhitga zararining oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar haqida ma’lumot hamda asoslantirilgan tushuntirish berish so‘ralgan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining kuni kecha bo‘lib o‘tgan yalpi yig‘ilishida ushbu masala ko‘rib chiqildi va parlament so‘rovini yuborish qarori qabul qilindi.



Подписан ряд двусторонних документов по развитию торгово-экономического и инвестиционного сотрудничества

По итогам «круглого стола» с руководителями ведущих американских компаний, инвестиционных фондов и финансовых институтов в присутствии Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева и спецпосланника Президента США Серджио Гора состоялась церемония обмена двусторонними соглашениями.



В частности, были подписаны следующие документы по реализации проектов торгово-экономического и инвестиционного сотрудничества:

- Соглашение о долгосрочном сотрудничестве в сфере транспорта между Министерством транспорта и компанией «Boeing»;
- Соглашение о создании совместного предприятия по производству горнообогатительного оборудования между ООО «Технопарк» и компанией «FLSmidth»;
- Соглашение о создании многопрофильной клиники и образовательного учреждения между «Akfa group» и «Cleveland Clinic»;
- Соглашение о взаимном партнёрстве и сотрудничестве между авиакомпанией «Centrum Air» и инвестиционной компанией «Oppenheimer»;
- Соглашение о сотрудничестве между Министерством экономики и финансов и компанией «Citigroup»;
- Соглашение о финансовом сотрудничестве между АО «Узбекгидроэнерго» и компанией «Cargill Financial Services International»;
- Соглашение о сотрудничестве между АО «Узтрансгаз» и компанией «Pangea Filtration Technology»;
- Соглашение о проведении геологоразведки на перспективных площадках между Министерством горнодобывающей промышленности и геологии и компанией «Cove Capital»;
- Соглашение о сотрудничестве между ООО «Янги Кон» и компанией «SLB»;
- Соглашение о сотрудничестве по созданию фондов для финансирования проектов в области искусственного интеллекта и биотехнологий между Фондом реконструкции и развития Узбекистана и компанией «Biologic International».

Узбекистан и АБР расширяют сотрудничество в области «зелёной» экономики и климатических инициатив

В Министерстве экологии, охраны окружающей среды и изменения климата состоялась встреча министра Азиза Абдухакимова с вице-президентом Азиатского банка развития (АБР) по Южной, Центральной и Западной Азии Инмином Яном.



В начале встречи узбекской стороной была выражена благодарность за многолетнее партнёрство и постоянную поддержку АБР, в частности в сфере управления отходами, реализации институциональных реформ и продвижения «зелёной» экономики в Узбекистане.

Особо было отмечено, что визит делегации в Наманган, участие в Международном форуме «От бедности к процветанию» и встреча с Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым стали важным вкладом в укрепление сотрудничества. Эти мероприятия позволили наглядно продемонстрировать реализуемые социально-экономические инициативы в регионах и подчеркнули значимость прямого диалога с населением в вопросах борьбы с бедностью и устойчивого развития.

В ходе встречи было отмечено, что 2025 год по инициативе Президента объявлен в Узбекистане «Годом охраны окружающей среды и «зелёной» экономики». Это решение отражает стратегический курс страны на формирование новой экологически ориентированной модели развития, расширение использования возобновляемых источников энергии и внедрение инновационных «зелёных» технологий.

Министр также проинформировал делегацию о создании в Узбекистане Центрально-Азиатского университета по изучению окружающей среды и изменению климата (Green University), который станет платформой для подготовки специалистов и проведения совместных исследований с АБР.

Отдельно подчёркнута успешная организация в Ташкенте Eco Expo Central Asia – 2025, ставшая площадкой для демонстрации «зелёных» технологий и инвестпроектов. Вице-президент АБР высоко оценил лидерство Узбекистана в этой сфере и выразил поддержку проведению выставки на регулярной основе.

В ходе встречи стороны также определили ключевые направления будущего сотрудничества, среди которых:

- участие АБР в реализации инициативы Clean Air Actions for Better Health and Resilience, направленной на улучшение системы управления качеством воздуха и укрепление общественного здоровья;
- развитие устойчивых и «умных» городов, внедрение инновационных технологий мониторинга качества воздуха и природно-ориентированных решений в урбанистике;
- расширение международного взаимодействия под лозунгом «Природа не знает границ», превращение Самарканда в международный центр экологических форумов.

Министр также пригласил представителей АБР принять участие в крупных международных мероприятиях, которые в ближайшем будущем пройдут в Узбекистане: 43-я Генеральная конференция ЮНЕСКО, 20-ая Конференция сторон Конвенции о международной торговле видами дикой фауны и флоры, находящимися под угрозой исчезновения (CITES CoP20), 8-я Ассамблея ГЭФ и Eco Expo Central Asia – 2026.

В завершение стороны выразили уверенность в дальнейшем углублении партнёрства и совместной реализации новых перспективных проектов.

Встреча с председателем совета директоров Tianjin Rail Transit Group

Министр транспорта Илхом Махкамов встретился с председателем совета директоров китайской компании "Tianjin Rail Transit Group" У Бинцзюнем.



В ходе встречи стороны обсудили перспективные проекты, направленные на развитие городской транспортной инфраструктуры.

В частности, состоялся обмен мнениями по вопросам сотрудничества в рамках проектов модернизации существующих станций и строительства новых

Davlat Soliq Qo'mitasi

Mahallalarda soliq organlari faoliyati

2025-yil avgust oyida "Mahallalarda soliq organlari faoliyati" axborot tizimida soliq inspektorlarining samaradorlik ko'rsatkichi (KPI) 68,7 ballni tashkil etdi.

Umumiy reytingda soliq inspektorlari hissasi yuqori bo'lgan hududlar:

- Farg'ona viloyati – 76,1%;
- Samarqand viloyati – 75,4%;
- Jizzax viloyati – 74,4%.

Mahallalarga biriktirilgan inspektorlarning avgust oyi reytingi ko'rsatkichlari:

90 dan yuqori ball jamg'argan 421 nafar, (shundan 183 nafari 100 ball olgan) xodim oy yakuni bo'yicha mukofotlash uchun tavsiya etildi.

Reyting ko'rsatkichi:

- 55 dan 90 ballgacha bo'lgan inspektorlar – 3 049 nafar;
- 55 balldan past bo'lgan inspektorlar – 849 nafarni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun. "Mahallabay" tizimida respublika bo'yicha 9 453 ta mahallada 4 319 nafar soliq inspektori bevosita faoliyat olib bormoqda.

Mahallalarga biriktirilgan soliq inspektoralrining 2025-yil avgust oyi yakunlari samaradorlik ko'rsatkichlari

Soliq inspektorlarining umumiy ballari	183 NAFAR 100 ball	55 NAFAR 97-100 ball	46 NAFAR 95-97 ball	137 NAFAR 90-95 ball	3 049 NAFAR 55-90 ball	849 NAFAR 55 balldan past

HUDUD NOMI	90 VA UNDAN YUQORI BALL	SHUNDAN, 100 BALL	65-90 BALL	65 VA UNDAN PAST BALL
Qoraqalpog'iston R.	13	8	161	33
Andijon v.	11	5	155	164
Buxoro v.	43	16	190	30
Jizzax v.	16	6	143	20
Qashqadaryo v.	29	13	198	66
Navoiy v.	14	4	123	30
Namangan v.	28	22	216	42
Samarqand v.	39	18	311	69
Surxondaryo v.	11	4	188	54
Sirdaryo v.	19	6	96	22
Toshkent v.	32	10	339	125
Farg'ona v.	93	48	276	74
Xorazm v.	35	16	192	17
Toshkent sh.	38	7	461	103


SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

MFYLAR SONI 9 453

BIRIKTIRILGAN XODIMLAR SONI 4 319

UMUMIY REYTINGDAGI BALI 68,7

- Mahallalar soni
- Biriktirilgan xodimlar soni
- Umumiy reytingdagi bali



Таъсисчи

Давлат активларини бошқариш агентлиги

"Бизнес-Daily Медиа" ноширлик уйи МЧЖ

Бош директор в.в.б. Бош муҳаррир

У. ПУЛАТОВ

Мурожаат учун

Тел.: +998 (99) 353-55-54

E-mail: biznesdm 2020@gmail.com

Манзил: 100000, Тошкент шаҳри, Амир Темур кўчаси, 6-уй.

Газета 1994 йил 31 августдан чиқа бошлаган.

2013 йил 12 апрелда Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 0064-сон билан қайта рўйхатдан ўтган.

2025 йилдан бошлаб газета PDF электрон шаклда чиқади. Нашр даврийлиги: ҳафтада икки марта – ҳар сешанба ва пайшанба кунлари. Формат А3 (816х406)

© Biznes Daily "Биржа"дан кўчириб босиш фақат "Бизнес-Daily Медиа" НУ МЧЖ рухсати билан амалга оширилади.

Газета жамият матбаа бўлимида терилди ва саҳифаланди.

© Biznes Daily "Биржа" оригинал макети.

Ⓕ Газета текин тарқатилади

telegram BIZNES DAILY BIRJA